



Criteria for assessing the basic competences of the modern teacher

Kamola SABITOVA¹, Oktam MANSUROV²

Tashkent State Pedagogical University

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2021

Received in revised form

20 July 2021

Accepted 15 August 2021

Available online

15 September 2021

ABSTRACT

In the article, the author discusses the essence of the basic competencies of modern students. He also showed how the methods of evaluation of the base competences are based on historical science and analyzed this process with the help of examples on the basis of experience. Offers several assessment criteria depending on the type and direction of assessment of the teacher's base competences. Indicates the methods of evaluation of the base competences in accordance with the indicators of the competency training.

2181-1415/© 2021 in Science LLC.

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Keywords:
education,
basic competence,
logic,
technologies,
assessment,
criteria,
competencies,
analysis.

Zamonaviy o'qituvchini tayanch kompetensiyalarini baholash mezonlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

talim,
tayanch,
kompetensiya,
tehnologiyalar,
baholash,
mezon,
kompetensiyalar,
analiz.

Maqolada muallif zamonaviy o'quvchilarni tayanch kompetensiyalarini mohiyati haqida to'xtalib o'tgan. Shuningdek tayanch kompetensiyalarni qanday baholash usullarini tarix fanidan kelib chiqib ko'rsatib bergen va mazkur jarayonni tajriba asosida misollar yordamida tahlil qilgan. O'qituvchining tayanch kompetensiyalarni baholash turi va yo'nalishiga qarab bir qancha baholash mezonlarini taklif qiladi. Kompetensiyaviy ta'lim ko'rsatkichlariga mos ravishda tayanch kompetensiyalarini baholash usullarini ko'rsatib o'tadi.

¹ Master, Faculty of history, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Tashkent, Uzbekistan.
E-mail: kamolasabitova87@gmail.com.

² Supervisor: Candidate of Historical Sciences, Associate Professor, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Tashkent, Uzbekistan.

Критерии оценки базовых компетенций современного учителя

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:
образование,
основы,
компетенции,
технологии,
оценка,
критерии,
компетенции,
анализ.

В статье автор раскрывает сущность основных компетенций современных студентов. Он также показал, как оценивать базовые компетенции с точки зрения истории и проанализировал этот процесс на примерах. Педагог предлагает ряд критериев оценки в зависимости от типа и направления оценки базовых компетенций. Демонстрирует методы оценки основных компетенций в соответствии с показателями компетенционного образования.

So'ngi yillarda yurtimizning barcha sohalaridagi kabi ta'lif-tarbiya sohasini ham tubdan isloh qilishga qaratilgan chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi sohasida kompetensiyaviy yondashuvning joriy qilinishi va unga asoslangan davlat ta'lif standartlarini ishlab chiqilishi shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning "Yana bir muammoni hal etish o'ta muhim hisoblanadi: bu pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lif olish, ma'nnaviy ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakillantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur" [1] deb ayatgan fikrlari bugunda o'z tasdig'ini topmoqda. Endilikda zamonavi darslarini o'tishga va o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar o'zgarmoqda. O'quvchilar olgan bilimlarini ularning kundalik hayotida duch kelishi mumkin bo'ldan vaziyatlarda qo'llay olishi kerak. Bu haqida fikr yuritish uchun ta'lilda kompetensiyaviy yondashuvni metodologik asos sifatida tanlab olindi.

O'zbekiston Respublikasida ta'larning uzuksizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan holda, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida o'qitiladigan umuta'lif fanlari mazmunining izchilligini ta'minlash maqsadida tayanch kompetensiyalar hamda har bir o'quv fani mazmunidan kelib chiqqanholda xususiy kompetensiyalar belgilab olindi.

Zamonaviy o'qituvchining tayanch kompetensiyalarga egaligini yoki uni ta'lif-tarbiya jarayoniga qanchalar tadbiq etayotganligini aniqlash bizga dars sifatini va samaradorligini oshirish uchun muximdir. Biz bunda o'qituvchining oqsayotgan jihatlarini ya'ni o'rganishimiz natijasida sust bo'gan tayanch kompetensiyarni aniqla Shu o'rinda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limga va uni baholash mezonlari bu - o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lmdir. Buni bartaraf etish uchun metodik yordam berishimiz zarurligini bildiradi. O'qituvchining tayanch kompetensiyalarga egaligini baholash odatta talim muassasi rahbariyati, metodistlariyoki boshqa pedagog tomonidan o'tkazilishi mumkin.

Bu mavzuni ochib berishda bir qancha o'zbek olimlar izlanishlar olib borishga, hususan "Malaka va kompetesiralarni baholash" Yusupova A.A. va Kamolova S.R. [2], "Pedagogik kompetentlik ta'im jarayoni muhim omili sifatida" Rahimov Zokir ilmiy maqolasi [3], "Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lif standartlarini joriy etish - zamonaviy ta'lif paradigmasi sifatida" Vaxobov M.M [4], Usarov Jabbor

Eshbekovichning “Tayanch va fanga oid kompetensiyalar asosida ta’lim mazmunini takomillashtirish va o’quvchilar kompetentligini rivojlantirish (fizika fanini o’qitish misolida)” mavzusidagi dissertatsiyasi [5].

Mavzu yuzasidan Rossiya olimlari ko’plab tadqiqotlariham muhim ahamiyat kash etadi. Masalan Э.Е. Феюшинанing «Как пройдет оценка компетенций учителя» [6] Test usuli va kasbiy masalani echishda tashxis usuli orqali o’qituvchi kompetensiyani baholash usullarini ko’rsatadi. К.В. Семеноваesa o’zining «Программа оценки компетенций учителей: что это такое и сроки проведения» maqolasida o’qituvchi kometensiyasini aniqlashni uch bosqichga bo’ladi. Bunda tashhis ishi so’rovnama va dars videoyozuvini tahlil qilish orqaliy amalgaga oshirish usullarini ko’rsatadi [7].

Shu o’rinda kompetensiya va tayanch kompetensiya atamasga to’xtalib ketsak.

Kompetensiya – bu (lotincha, “erishaman, to’g’ri kelaman” ma’nolarini bildiradi) subyektning maqsadni qo’yish hamda unga erishish uchun tashqi va ichki zaxiralarni samarali amalga oshirishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan faoliyat obyekti bilan bog’liq muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga doir shaxsiy qobiliyatidir.

Kompetensiya – ma’lum bir sohada samarali ijodiy faoliyat uchun zarurbo’lgan o’quvchining avvaldan belgilangan ta’limiy tayyorgarligiga qo’yiladigan ijtimoiy talablar (me’yorlar)dan ham o’zib ketishidir [8].

Tayanch kompetensiyalarning dunyo bo'yicha yagona ro'yxati yo'q. Chunki har bir mamlakatning yoki regionning o'z an'analari, mentaliteti va o'ziga xos talablari bor. Kompetensiya – bu jamiyatning o'z fuqarolariga qo'yan ijtimoiy buyurtmasi bo'lib, ularning ro'yxati ma'lum bir mamlakatdagi yoki regiondagi ijtimoiy muhit bilan belgilanadi. Bunday kelishuvga har doim ham erishib bo'lmaydi. Masalan Shveytsariyaning va Amerika Qo'shma Shtatlarining iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti hamda ta'lim statistikasi Milliy institutining “Tayanch kompetensiyalarni tanlash va aniqlash” nomli loyihasida tayanch kompetensiyalarni qat’iy ravishda aniqlab olishning imkoniyati bo'lmanagan.

Inson o’z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o’z o’rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhim o’z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan **tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim**.

1. Kommunikativ kompetensiya;
2. Axborot bilan ishslash kompetensiya;
3. Shaxs sifatida o’zini-o’zi rivojlantirish kompetensiya;
4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiya;
5. Umummadaniy kompetensiya;
6. Matematik savodxonlik, fan texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish kompetensiya.

O’qituvchining tayanch kompetensiyalarni baholashda mazkur kompetensiyaning turi va yo’nalishiga qarab quyidagi baholash mezonlaridan foydalanish mumkin:

- Test usuli;
- Suhbat usuli;
- Mantiqiy topshiriqlar(kasbiy masala) usuli;
- Yozma nazorat usullari;
- Pedagogik dars kuzatuvi va tahlili.

Bundan tashqari o’qituvchini tayanch kompetensiyalarini ta’lim-tarbiya jarayonida qo’llay olishida bilish, tushuntirish, qo’llay olish, analiz va sintez qilish, baholash va hulosha chiqarish kabi mezonlar muhim o’rin egallaydi.

Kompetensiyaviy ta'lilda uning ko'rsatkichlariga mos ravishda tayanch kompetensiyalarini baholash usullarini quyagicha tanlashimiz mumkin:

Nº	<i>Tayanch kompetensiyalar</i>	<i>Baholashusullari</i>
1.	Kommunikativ kompetensiya;	Suhbat usuli
2.	Axborot bilan ishslash kompetensiya;	Test usuli
3.	Shaxs sifatida o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiya;	Pedagogik kuzatuv, dars tahlili
4.	Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiya;	Kasbiy masala (muammoliy vaziyat)
5.	Umum madaniy kompetensiya;	Yozma nazorat usuli
6.	Matematik savodxonlik, fan texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish kompetensiya.	Mantiqiy topshiriqlar test usuli.

O'qituvchini tayanch kompetensiyalarga egaligini tarix fani darsi misoldida quyidagicha qiyosiy baxolashimiz mumkin. Bunda eng yuqori ballni 50 ball deb olsamiz:

Axborot bilan ishslash kompetensiyasi (dars tahlili usuli)

Nº	Ko'rsatkichlar	Ball
1.	Mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, electron pochta va boshq.) foydalana olish;	10 ball
2.	Media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishslash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish;	10 ball
3.	Kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (<i>oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalarni to'ldirish. Mehmonxona ro'yxatida o'zi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd eta olishi va boshq.</i>)	10 ball
4.	Ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiyalarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;	10 ball
5.	Axborot xavsizligi qoidalari bilishi va axborotni tahlil qila olishi.	10 ball

Masalan: 6-sinf Tarix darsida qadimgi Misr dini, Mesopotamiya sivilizatsiyalari, Hindiston sivilizatsiyalari, Xitoy sivilizatsiyalari, Zardushtiylik, Qadimgi Yunoniston madaniyati, 7-sinf Jahon tarixida VI–XI asrlarda yevropa xalqlari madaniyati, Islom dinining vujudga kelishi kabi mavzularni o'tishda o'qituvchi qay darajada mediya vositalaridan foydalanamoqda, mavzuga oid bugungi kudagi yangiliklar va axborotlarni qanday tahlil qilmoqda umuman axborot vositalari yordamida mavzuni bugungi kun bilan bog'lab o'tishi kabi jihatlarini inobatga olib baholaymiz.

1. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanishkompetensiyasi (mantiqiy topshiriq usuli)

Nº	Ko'rsatkichlar	Ball
1.	Aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iktisodiy rejalarini tuza olish;	10 ball
2.	Shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda xisob-kitob bilan ish yuritish;	10 ball
3.	Kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va foydalanish;	10 ball
4.	Inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdarligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan vatexnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalana olish.	10 ball
5.	Statistik malumotlarni tahlil qila olish	10 ball

Masalan: 5-sinf “Tarixdan hikoyalar” o’quv dasturidagi “Tarixda yil hisibi”, “Xronologiya” “Dunyo xaritalari tarixi” mavzularini o’tishda, o’qituvchi milodiy va hijriy yilga aylantirishni o’ragatishi, kolendarlardagi tafovudlarni matematik yol bilan hisoblay bilishi, xartadan biror davlatni joylashgan o’rni yoki boshqa davat bilan orasidagi masofani aniqlay olishi, o’zbekiston tarixida biror tarixiy jarayon bolayotgan davrdan 100 yil o’tib jaxon tarixida qanday voqeya sodir bo’lganliginini aniqlay olishiga ko’ra mantiqiy topshiriqlar orqaliy baholaymiz.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, bu mavzuda o’z yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Xususan, o’quvchilarda kompetensiyalarni shakllanganlik darajasini belgilaydigan mezonlar ishlab chiqilishi zarur. Bu mezonlar o’quvchilarning yoshi, psixofiziologik xususiyatlarini ham hisobga olishi kerak.

Pedagog tomonidan tashkil qilinadigan dars ham tarkibiy jihatdan mukammal dars bo’lishi kerak. Buning uchun uning strukturasi va ekspertiza qilish mezonlari ishlab chiqilishi kerak.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarish bilan birgalikda ta’lim muassasasida ilmiy-metodik, axborot bazasini shakllantirish, pedagog kadrlarni tayyorlash, ishlab turgan pedagoglarimizda yangicha fikrlashni shakllantirish kerak.

O’qituvchilarni ta’limdagagi kompetensiyaviy yondoshuv bilan tanishtirish;

Tayanch kompetensiyalarni shakllantirishni ta’minlaydigan texnologiyalarni egallash, o’qituvchilarni kompetensiyalarga yo’naltirilgan topshiriqlarni tuza olish va darsda hamda darsdan tashqari faoliyatda qo’llay olishga o’rgatish;

O’qituvchilarni berilgan topshiriqlarni o’quvchilar tomonidan qanday bajarilganligini analiz qilish va baholashga o’rgatish. Monitoring o’tkaza olish.

O’z pedagogik faoliyatiga korreksiyalar krita olish bugungi ta’lim tizimida muxim axamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Sh.M. Mirziyoev “Taqnidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik harbir rahbar faoliyatning kundalik qoidasi bo’lishi kerak” Toshkent, 2017-yil.
2. Yusupova A.A va Kamolova S.R “Malaka va kompetesiralarni baholash”. Toshkent davlat Sarqshunoslik istiuti 2012. / o’quv-qo’llanma.
3. Rahimov Zokir “Pedagogik kompetentlik ta’im jarayoni muhim omili sifatida” ilmiy maqolasi «Науки об образовании» CC BY 1025128.
4. Vaxobov M.M. “Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlarini joriy etish – zamonaviy ta’lim paradigmasi sifatida”. Tekst nauchnoy stati po spetsialnosti «Nauki ob obrazovanii» CC BY 2501336.
5. Usarov J.E. “Tayanch va fanga oid kompetensiyalar assosida ta’lim mazmunini takomillashtirish va o’quvchilar kompetentligini rivojlantirish (fizika fanini o’qitish misolida)” mavzusidagi dissertatsiyasi <https://uza.uz/uz/posts/usrarov-zhabbor-eshbekovichning-talim-va-tarbiya-azariyasi-v-28-11-2019>.
6. Э.Е. Феюшина «Как пройдет оценка компетенций учителя» <https://pedsovet.org/search/author/fedusina-elvira-evgenevna>.
7. К.В. Семенова “Программа оценки компетенций учителей: что это такое и сроки проведения” <https://multiurok.ru/blog/proghramma-otsienki-kompietentsii-uchitielie-chto-eto-takoie-i-sroki-proviedeniia.html>.
8. Anapiyayev F. “Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat Ta’lim Standartlari” (ma’ruza). www.RTM.uz.